



## KITOBXONLIK MADANIYATI: ILMIY-FALSAFIY VA AKSIOLOGIK TAHLIL

Óteniyazova Suliwxan

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

### Annotation

Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning zarurati, ahamiyati, inson va jamiyat hayotidagi ijobiy tásiri yoritilgan.

**Kalit sózlar:** kitobxonlik madaniyati, mutolaa madaniyati, axborotlashgan jamiyat, bilim, shaxs, jamiyat, faoliyat, kitobxon, tarǵibot, ommaviy kitobxonlik, kitob fondi, dunyoqarash, kutubxona

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida insoniyat bir necha mójizaviy ne'mat moddiy va mánaviy ashyoga ega bólgan. Ular ovoz, nutq, yozuv va kitob. Taraqqiyotning turli bosqichlarida evolyutsion (asta-sekin oddiydan murakkabga tomon borish) asosida insoniyat qólga kiritgan bu ashyolar sivilizatsianing navbatdagi bosqichi uchun asos bólíb xizmat qilgan. Agar insoniyat ovoz, nutq va yozuv yordamida ózaro ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, xohish-istiklarni, intilishlarni bir-biriga bayon qilish imkoniyatiga ega bólgan bólsa, kitob vositasida óz ongini boyitish, nutqi, fikrlash va mantiqiy tafakkur yuritish qobiliyatini rivojlantirishga muvaffaq bólgan.

Kitob asrlarni asrlarga, zamonlarni zamonlarga, rishtalarni rishtalarga ulovchi vosita. Shuning uchun har bir inson, har bir kitobxonda kitob óqish, axborot olish madaniyatini yanada rivojlantirishimiz kerak. Kitob óqish madaniyati juda keng tushuncha va murakkab muammo bólíb, taxminan quyidagi holatlarni óz ichiga oladi:

Kitob tanlay bilish;

Kitobni qanday óqishni bilish;

Kitob óqiganda nimalarga e'tibor berish va nimalarni eslab qolish;

Kerakli málumotlarni qaerdan, qanday, qaysi vositalardan foydalanib topish;

Olingan bilimni yoki xabarni qanday yetkazib berish;

Qayta óqish kitobxonlik madaniyati va kónikmasini shakllantirish;

Ayni paytda axborot kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni ózlashtirish bilan birga, yoshlarni kitob óqishga bólgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan dóst bólishga, aholining kitobxonlik madaniyatini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bóladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev shunday deb tákidlaydi: "Dunyoda har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda ózining intellektual salohiyati, yuksak mánaviyati bilan qudratlidir. Bunday yengimas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti kitob va kutubxonalarda. Kitob óqimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yóq".

Xaqiqatdan ham inson dunyoqarashini shakllantirish, tálim tarbiya, axloq me'yorlarini qaror toptirish, mánaviy barkamol insonni tarbiyalashda ilm fan va kitob muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ruhiyati doimo mánaviyatga, ilm olishga moyildir.

Inson óziga kerakli mánaviy ozuqani ilm márifat orqali anglaydi. Insonning ilmiy salohiyati ortgan sari oljanob,adolatli, yuksak bólub boradi. Aziziddin Nasafiy yozishicha: "Insonning vazifasi uzlusiz márifatga intilish va óz borlığini nur bilan tóldirish, ilm topib musaffolikka yetishishdir." Óz mohiyatini tógri va teran anglagan hamda shunga munosib ravishda ilm olishga intilgan odam, shubhasiz komillik sari odim qóygan bóladi.[1]

Zamonamiz márifatlari ham ilm va ibrat masalasida óz nuqtai nazarları, qarashlarini ózlarining ilmiy ijodiy merosiga muhrrab ketganlar Ana shu ruhiy kuch quvvat, hech shubxasiz ilmu márifat va oqilona ibratda yuzaga keladi. Márifat nuri bilan yógrilgan bilim va iqtidor kishida hayotiy jarayonlardan ibrat ola bilishga raǵbat beradi. Ammo bilimning darajasi, uning mukammal egallanganligi bu órinda muhim ahamiyatga egadir. Ilm esa óz órnida kitob orqali shakllanadi.

Ushbu masalaga yanada chuqurroq e'tibor berib, tarixga murojaat qiladigan bóljak, kitobni uluǵlash, bolalar órtasida ilm márifat asoslарını targib qilish maqsadida kutubxona tashkil etishda jadidchilik harakatining vakillari ham ibrat kórsatganlar. Masalan, Namanganlik márifatparvarlardan biri Isxoqxon Ibrat óz uyida "Kutubxonai Isxoqiya" deb nomlangan kutubxona tashkil qilgan. Ushbu kutubxona



## Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5<sup>th</sup> March, 2023

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

fondidan ózbek, rus, turk, tatar, fors, tojik tillarida yaratilgan adabiyotlar órin olgan. Isxoqxon Ibratning kutubxonasi nafaqat u óqigan óquvchilarga, shuningdek qishloq aholisiga ham xizmat qilgan. Kutubxonadagi kitoblar ularning xarakteri, yónalishiga kóra bir necha bólimlarga ajratilgan.[2]

Xususan, maktab óquvchilari uchun móljallangan bólimdan S.Saidazizovning “Ustodi avval”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yohud axloq”, R.Yusufbek xoji óglining “Rahbari xisob” kabi darslik va óquv qóllanmalari órin olgan. Ibrat kutubxonasi doimiy ravishda boyib borgan. Márifatparvarlar tomonidan kutubxona faoliyatining yónga qóylishi, kitobxonlar tomonidan kitoblarning olinishi va topshirilishi qayd etilgan daftarlarning yuritilishi, shuningdek óquvchilarning kitob mutolaa qilishlari, óqishlari shaxsan nazorat qilib borilgan.

Ayniqsa, mánaviy islohotlar jarayoni sifat jihatdan ózining yangi poǵonasiga qadam qóyayotgan bugungi kunda jamiyat hayotida milliy qadriyatlar va an'analarni chuqur qaror toptirishda, yosh avlodning mánaviy taraqqiyoti, ongu tafakkuri, dunyoqarashini yuksaltirishda mislsiz ahamiyatga ega bólgan mutolaa madaniyatni va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Bu jihatdan Ózbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil, 16 sentyabrda qabul qilingan «Kitob mahsulotlarini nashr ettirish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targib qilish býicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tógrisida»gi Qarori ushbu soha taraqqiyotiga keng imkoniyatlar yaratib bergen muhim hujjatdir.[3]

Axborot oqimi kuchayib borayotgan, virtual dunyo turli-tuman axborotlar bilan tólib toshgan bugungi kunda barcha fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning mánaviy tafakkurini tarbiyalash, ularda mutolaa madaniyatini, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ushbu madaniyatni doimiy va muntazam kónikmaga aylantirish har qachongidan kóra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. [4.b.1]

Málumki, tarixda ótgan buyuk allomalarning barchasi kitobni nurga, tafakkur quvvatiga, mánaviyat timsoliga, bilim manbaiga, eng yaqin maslahatdosh va sodiq dóstga tenglashtirganlar va qiyoslaganlar.

Insoniyat jamiyatining ikki ming yilligi davrida kóplab olamshumul kashfiyotlar qilingan bolsada uning taraqqiyotiga beqiyos hissa qóshgan buyuk voqeа sifatida



kitob chop etishning ixtiro qilinishi dunyo olimlari, siyosatchilari, jamoat arboblari jamoat tashkilotlari tomonidan bir ovozdan tan olingan.

«Mutolaa» sózi aslida óqish mánosini anglatsa-da, bugungi axborot asrida u kitob óqishdan kóra kengroq mánoni anglatmoqda.

Mutolaa madaniyatining tarkibiy unsurlari bólgan ixtiyorilik, anglangan bilimga intilish, erkin tanlangan faoliyat, óz-ózini takomillashtirishga ongli raǵbat inson mánaviy yuksalishining harakatlantiruvchi omillaridir.

Kitob óqish va kitobxonlikka ijobiy munosabat ózbek oilalarida qadimdan mavjud bólub kelgan. Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Uvaysiy, Nodira ǵazallari, Abdulla Qodiriylasrarini guruh-guruh bólub, oilaviy tarzda, qólma-qól mutolaa qilganlar.[5] Lekin, XXI asr voqeligiga xos bólgan muhit ulkan axborotlar oqimidan keraklilarini tez qabul qilish, tez tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish mahoratiga ega bólishni talab qilmoqda.

Mutolaa madaniyatini shakllantirishda foydalanuvchilar qiziqishi va ehtiyojini órganish asosiy yónalishlardan biri bólganligi uchun ularning foydalanish manbalarini aniqlash maqsadida Respublika axborot-kutubxona markazi foydalanuvchilari órtasida 2018 yilda ótkazilgan sórovnomalari natijalariga kóra 60 respondentlarning (jami 1436 kishi) 32 foizi óziga kerakli málumotlarni kitobdan, 26 foizi internetdan, 18 foizi elektoron kitoblardan, 10 foizi televidenie va radiordan, 4 foizi ish joyidan olishlarini bildirganlar. Demak, foydalanuvchilarning asosiy qismi óz mutolaa ehtiyojlarini kitoblar orqali qondiradilar.

### **Adabiyotlar:**

1. Ózbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda tarǵib qilish býicha kompleks chora tadbirlar tógrisida”gi (2017 yil 13 sentyabr) Qarori.
2. Malik Murodov. Ózbek qadriyatları.T. “Chólpon”1995.132b.
3. Rizouddin ibn Faxriddin.Nasihat.T.”Chólpon”.1993.12b.
4. Kitob uz. sayti.
5. Збаровская Н.В. Формирование культуры чтения и общедоступных библиотеках. Дисс.канд.пед наук. 1997.157с.